JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA YOSHLAR MANTQIY TAFAKKURINI O‘RNI TIMSS DASTURI MISOLIDA

Xamzaqulov Erjigit Abdubasharovich
GulDPI “Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
Shohjahon Hayitov Shuhratjonovich
GulDPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda yoshlar mantiqiy tafakkurining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash dasturi natijalari asosida yoshlarning kognitiv salohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli konseptual jihatdan yoritilgan.TIMSS dasturi o‘quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobilyatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib,bu jarayonda mantiqiy fikrlash asosiy o‘rin egallagan.

Kalit so‘zlar: TIMSS, mantiqiy fikirlash,matematik savodxonlik,tabiiy fanlar,muommoli vaziyat, kompetensiya, baholash, maktab, ta’lim sifati.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda har qanday jamiyatning barqarorligi nafaqat uning moddiy boyliklari, balki o‘sib kelayotgan avlodning intellektual salohiyati va mantiqiy fikrlash darajasi bilan belgilanadi. Mantiqiy tafakkur — bu shunchaki to‘g‘ri xulosa chiqarish san’ati emas, balki murakkab ijtimoiy jarayonlarda ratsional qarorlar qabul qilish va axborot xurujlariga qarshi tura olish qobiliyatidir. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning faqat bilim darajasini emas,balki ularning mantiqy va tanqidiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Shu nuqtai nazardan,xalqaro baholash dasturlari,xususan TIMSS,ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.TIMSS dasturi o‘quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobilyatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib,bu jarayonda mantiqiy fikrlash asosiy o‘rin egallagan.

Mantiqiy tafakkur – ijtimoiy barqarorlikning intellektual asosi

Jamiyat barqarorligi kutilmagan inqirozlarga nisbatan jamiyat a’zolarining tayyorgarligi bilan o‘lchanadi. Yoshlarda mantiqiy tafakkurning shakllanganligi quyidagi ikki yo‘nalishda jamiyatni himoya qiladi.

-Yoshlar voqea va hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglaydi, bu esa turli ekstremistik g‘oyalar yoki manipulyatsiyalarga berilmaslik imkonini beradi.

-Mantiqiy fikrlaydigan kadrlar iqtisodiyotda murakkab muammolarga optimal yechim topadi, bu esa ijtimoiy farovonlikni oshiradi.

TIMSS dasturi- Mantiqiy salohiyatni o‘lchash mezoni

TIMSS baholash dasturi maktabda to‘rtinchi va sakkizinchi sinflarda o‘tkaziladi; ayrim sikllarda “TIMSS Advanced” deb nomlangan qo‘shimcha dastur ham mavjud bo‘lib, u maktabni tamomlayotgan o‘quvchilarning ilg‘or matematika va fizika yutuqlarini o‘lchaydi. Har bir mamlakatda milliy tadqiqot markazlari ishtirok etadi, ular xalqaro markaz bilan birgalikda sinov savollarini ishlab chiqish, namunaviy tanlovni belgilash va ma’lumot yig‘ishni amalga oshiradi.Mazkur maqola o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlanishda TIMSS xalqaro baholsh dasturi topshiriqlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.Taqdimotda TIMSS topshiriqlarining tuzulishi,ularning kompetensiyaviy yo‘nalganligi hamda o‘quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli yoritilgan.

Mantiqiy fikrlash-bu: tahlil qilish,solishtirish,umumlashtirish, xulosa chiqarish qobilyatlarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinflardan boshlab bu ko‘nikmalarni rivojlantiradi:Matematik savodxonlikni oshiradi.Mustaqil fikrlashni shakllantiradi.Muommolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi

TIMSS topshiriqlari o‘quvchilarningmantiqiy fikirlashini quydagi yo‘llar bilan rivijlantiradi.

Muammoli vaziyat yaratish orqali.

-Topshiriqlar o‘quvchilarni izlanishga undaydi, bu esa mustaqil fikirlashni rivojlantiradi.

Tahliliy fikirlashni shakillantirish orqali .

-O‘quvchi bergan ma’lumotlarini tahlil qiladi,solishtiradi va kerakli xulosaga keladi.

Sabab- oqibat bog‘lanishini aniqlash orqali.

-Masalani yechishda o‘quvchi mantiqiy ketma-ketlikni tushunadi.

Ijodiy yondashuvni rivojlantirish orqali.

-Bir masalaga turli yechimlar toppish imkoniyati o‘quvchilarning kreativ fikirlashni oshiradi.

1-misol. Bir sinfda 27 ta o‘quvchi bor. Ularning 1/3 qismi qizlar. Qolganlari o‘g‘il bolalar. O‘g‘il bolalar soni qizlardan nechta ko‘p?

Yechim:

Qizlar: 27 ÷ 3 = 9 ta

O‘g‘il bolalar: 27 – 9 = 18 ta

Farq: 18 – 9 = 9 ta

Ahamiyati:

Bu topshiriq o‘quvchini:

-ulushni tushunishga,

-bosqichma-bosqich fikrlashga,

-natijani solishtirishga o‘rgatadi.

2-misol Quyidagi sonlar ketma-ketligini davom ettiring:

2, 4, 8, 16, _ , _ ,

Yechim:

Har safar 2 ga ko‘paytirilmoqda

Keyingi sonlar: 32, 64

Ahamiyati**:**

Bu misol:

-qonuniyatni aniqlash,

-umumlashtirish,

-mantiqiy xulosa chiqarishni rivojlantiradi.

3-misol. Bir do‘konda 1 dona daftar 4000 so‘m turadi. Dilshod 5 ta daftar sotib oldi va 25000 so‘m berdi. Unga nech pul qaytariladi?

Yechim**:**

5 × 4000 = 20000 so‘m

Qaytim: 25000 – 20000 = 5000 so‘m

Ahamiyati:

-amaliy hisoblash,

-pul bilan ishlash,

-hayotiy vaziyatni tushunish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Jamiyat barqarorligi faqat huquqiy-ma’muriy choralar bilan emas, balki har bir shaxsning, ayniqsa yoshlarning ongli va mantiqiy munosabati bilan ta’minlanadi. TIMSS dasturi bizga yoshlarimizning mantiqiy salohiyatini obyektiv baholash imkonini beradi. Mazkur ko‘rsatkichlarni yaxshilash — kelajakdagi ijtimoiy bo‘hronlarning oldini olish va davlatning intellektual mustaqilligini mustahkamlash demakdir.TIMSS xalqoro baholash dasturi orqali o‘quvchilarda nafaqat bilim ,balki tahlil qilish muammoni hal etish va ijodiy fikirlash ko‘nikmalariham shakillanadi. Ular o‘quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo‘llash,tahliliy fikrlash va muommolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.Shu bois,ushbu topshiriqlarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yili 5-sentyabrdagi – Xalq ta’limitizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora tadbirlari
2. Mullis I.V.S., Martin M.O. TIMSS International Results.
3. TIMSS 2019 Assessment Frameworks.